49

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Rixsiyeva O.Sh.
2020 yil “28” 08

“KELISHILDI”
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2020 yil “28” 08

Ro‘yxatgaolindi: № MD -5A120102
2020 yil “28” 08

O‘RGANILAYOTGAN MAMLAKATDA TIL VAZIYATI VA SIYOSATI (ARAB MAMLAKATLARI) FANDASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Mutaxassislik:	5A120102 - Lingvistika (sharq tillari)

Toshkent – 2020

Fan/modul kodi 5ATZY225	O‘quvyili 2020-2021	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 5
Fan/modul turi Majburiy	Ta’limtili O‘zbek/rus		Haftadagidarssoatlari 2,4

1.	Fanning nomi	Auditoriyamashg‘ulotlari (soat)	Mustaqilta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O‘rganilayotgan mamlakatda til vaziyati va siyosati	60	90	150

I. Fanning mazmuni

Ushbu “O‘rganilayotgan mamlakatda til vaziyativa siyosati”fanining dasturini tuzishda mamlakatimizda so‘nggi yillarda chet tilini o‘qitish borasida olib borilayotgan davlat siyosati bilan bog‘liq o‘zgarish va islohatlar hamda talablar e’tiboriga olindi.

Dastur mamlakatimiz ta’lim tizimida chet tillarni o‘rganish uchun ishlab chiqilgan “Xorijiy tillar bo‘yicha o‘quv fanlaridan o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan majburiy talablar”dan kelib chiqqan holda tuzildi.

Namunaviy dastur birinchi kurs magistratura bosqichi talabalariga 30 soat ma’razava 30 soatamaliydarssifatidao‘tishga mo‘ljallangan. Mazkur fan arab adabiy tili bilan turli lahjalarning boshqa tilshunoslik fanlari orasidagi o‘rnini va xorijiy tilni o‘rganishda arab adabiy tili va muloqotning boshqa shakllari (turli shevalar va maishiy-so‘zlashuv tili) ni bilishning ahamiyatini o‘rganadi. Shuningdek arab mamlakatlarida sodir bo‘lgan turliijtimoiy-siyosiy jarayonlar va til siyosati ta’sirida tilning lug‘at tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘rganadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘uloltlari)

II.I. Fan tarkidiga quyidagi mavzular kiradi:

“O‘rganilayotgan mamlakatda til vaziyativa til siyosati (arab mamlakatlari)” fanining mazmuni, predmeti va metodi

Fanning mazmuni. Xorijiy Sharq mamlkatlarida til rivojlanishining umumiy yo‘nalishlari va omillari; arab tilining funksional shakllari; davlat tili va uning maqomi, ijtimoiy vazifasi; arab mamlakatlarida etnolingvistik vaziyatning rivojlanishiga migratsiya va urbanizatsiya jarayonining ta’siri, ijtimoiy –iqtisodiy jarayonlarning chegaralangan leksikaga ta’siri.

Arab davlatlaridagi til siyosatining vazifalari

– Misr, Jazoir va Sudandagi til vaziyati; arab mamlakatlaridagi til siyosatining konsepsiyasi; ta’lim tizimining rivojlanishi; Mashriq va Mag‘rib mamlakatlarida arablashtirishning o‘ziga xosligi; siyosiy, ijtimoiy va etnik muammolar; ko‘p tillilik vaziyatida arablashritish siyosati; tillararo munosabat, o’zaro ta’sir (Sudan

misolida); sotsium (jamoa a'zolari)ning davlat tiliga munosabati, ularni amalda ishlatish darajasi haqidagi ma'lumotlar.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ro'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzulartavsiya etiladi:

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

Amaliy darslarda ko'zda tutilgan mavzular:

1. Arab tilning rivojlanishidagi tarixiy burilishlar.
2. Arab mamlakatlarini etnik va etnolingvistik belgilariga ko'ra diffirensiyatsiyalash.
3. Arab tarixiy-madaniy mintaqasidagi til vaziyatining o'ziga xosligi.
4. Tunisdagi til vaziyati.
5. Quvaytdagi til vaziyati
6. Arab mamlakatlaridagi til siyosatining asosiy yo'nalishlari
7. Savodsizlikni bartaraf etish muammolari.
8. Zamonaviy arab ilmiy-texnikaviy terminalogiyasining shakllanishi.
9. Tunis va Marokashdagi arablashtirishning o'ziga xosligi
10. Arab tili radio va televideniyada.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- mazkur mavzu yuzasidan ma'ruzalar matni, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ilmiy maqolalarni o'qishi lozim;
- fan masalalari bo'yicha ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'rganish;
- mazkur fanga oid bibliografiya tuzish;
- internetdan yangi materiallar qidirish
- olgan bilimlaridan o'z ilmiy –tadqiqot ishida foydalanish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Fors ko'rfazidagi arab mamlakatlarining til vaziyati
2. Sudandagi arablashtirish siyosati
3. Sudan ta'lim tizimidagi arablashtirish .
4. G'arbiy Saharadagi til vaziyati .

5. Arablashtirish siyosatida OAVlarining roli
6. Arab tilinnig Markaziy Osiyo shevasi .
7. Arab adabiy tili va arab dunyosi.
8. Arab tili va Maltadagi ikki tillilik vaziyati.
9. Til siyosatining xalqaro aspekti.
10. O‘mon sultonligidagi ta’lim tizimi.

V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida magistr:

“O‘rganilayotgan mamlakatda til vaziyativa siyosati (arab mamlakatlari)” faninio‘zlashtirishjarayonida magistr:

– o‘rganilayotgan mamlakatdagi sotsiolingvistik vaziyat;

– o‘rganilayotgan mamlakatning etnik tarkibi va ularning tili;

– til vaziyati tushunchasi;

– til vaziyati turlari va ularning farqlari;

– tilio‘qitilayotgan mamlakatda etnolingvistik vaziyat;

– ***standart (davlat) va nostandart (nodavlat) tllari jtimoiy xizmat doirasi;***

– bilingvizm va polilingvizm;

– davlat tili tushunchasi, ya’ni o‘rganilayotgan mamlakatda olib borilayotgan til siyosati;

– ***sotsium (jamoa a’zolari)ning davlat tiliga munosabati;***

– jamiyatda til vaziyatini xarakterlovchi omillar ***haqida tasavvurga ega bo‘lishi;***

– o‘rganilayotgan mamlakatda til vaziyatini me’yorga solishda til akademiyalarining o‘rni;

– savodsizlik darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda davlat tomonidan o‘tkazilayotgan til bilan bog‘liq ta’lim tizimidagi islohotlar;

– oav va televideniening mamlakatdagi til vaziyatiga ta’siri;

– xalqaro mehnat taqsimotida sharq mamlakatlarining roli va o‘rganilayotgan mamlakatdagi til vaziyatiga ularning ta’sirini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

– til vaziyatining rivojlanish tendensiyalarini;

– til vaziyatining rivojlanish omillari va tarixiy-madaniy sabablarini;

– o‘rganilayotgan mamlakatning lingvogeografik va lingvoareal tavsifini;

– o‘rganilayotgan mamlakat adabiy tilining maishiy-so‘zlashuv tili va dialektlardan farqini;

– o‘qitilayotgan til lug‘at boyligining o‘sishida turli ilmiy tashkilotlarning o‘rnini o‘rganilayotgan mamlakatdagi til vaziyati bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va tizimlashtirish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak***;

– o‘rganilayotgan tilniisloh qilish yo‘lida olib borilgan harakatlar, ularning

faoliyatiga umumiy baho berish;

– globallashuv sharoitida o‘rganilayotgan sharq tilining umumiy holati bo‘yicha kechayotgan o‘zgarishlarni tushunaolish***malakalariga ega bo’lishi kerak;***

VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

“O‘rganilayotgan mamlakatda til vaziyati va siyosati (Arab mamlakatlari)” fanini o‘zlashtirishda ta’limning innovasion usullaridan foydalanishi, yangi pedagogik, axborot va internet texnologiyalarini tadbiq qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Fanni o‘zlashtirishda o‘quv-uslubiy ta’minot (darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, modul topshiriqlari)dan foydalanilish tavsiya etiladi. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda turli metod va vositalardan, xususan, aqliy hujum, klaster, amaliy ish va didaktik o‘yinlar, portfolio, keys-stadi, shuningdek, kompyuterdasturlaridan (Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, WebTrust) internettizimlaridanfoydalanishmumkin.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1.Фатеева И.Г., Насырова М.А. Языковая ситуация в арабских странах(конец XX века). – Т.: ТашГИВ, 2013. -192с.

2. Dadaboyev H., Usmonova Sh. Xorijiysotsiolingvistika. –T.:Universitet, 2014.-136 b.

3. Алимджанова З.Н.Арабская лексикология. –Т.: ТашГИВ, 2011. -112с.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

3. БеловаА.Г. Очерки по истори иарабского языка.Учебник. –М.,1999.

4. Звегинцев В.А. История арабского языкознания. Монография. -М., 1985

5. Imomxo‘jaev O. Arab yozuvi haqida risola / Sharqshunoslik, maqola.TDShI. 1998.

6. История лингвистических учений. Средневековий Восток.-Л.:1981, -300с.

7. КонрадН.И. Запад иВосток. –М., 1972.

8. КонрадН.И. Староевостоковедениеи егоновыезадачи. Статья. –М., 1972.

9. Лингвистический энциклопедический словарь. - М., 1998
10. Современная лингвистика. Теория, проблеми и методи. Монография. –М., 1976.
11. Sodiqov A.A. Abduazizov, Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. –T., 1981.
12. SulaymonovaF. SharqvaG‘arb. Монография. -T., 1998.
13. Старинин В.П. Структура семитского слова. Прерывистые морфемы. - М.: Вост. лит. 1963. -110с.
14. ХалидовБ.З. АкадемикИ.Ю.Крачковский (к100 летиюоднярождения). Статьи. //НародиАзииАфрики. 1983.
15. ХалидовА.Б. МихайловаИ. Библиографияарабскихрукописей. –М., 1982.
16. Халидов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. Монография. - М.: Наука, 1985. 305-с.
17. Юшманов Н.В. Грамматика литературного арабского языка. Учебник. - М., 1985

Internet saytlari

18. **www.almeshkat.com**
19. **www.drmosad.com**
20. **www.el-eman.com**

Fan dasturiOliyva o‘rta maxsus, kasb-hunarta’limyo‘nalishlaribo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 202__ yil “___”_____ dagi ____ -sonlibayonnomasibilanma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 202__ yil “___” _____dagi _____ - sonly buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oily ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan/modulucunma’sullar:
Shomusarov Sh.– Toshkent davlatsharqshunoslikuniversitetiprofessori, fil.f.d.

Taqrizchilar:
Islomov Z.– O ‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi professori, fil.f.d.
Shokirova Z.N. – O‘zXIAArab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasi dost., t.f.n.